Annotatsiya: Ushbu maqolada “O'ztransgaz” AJ faoliyati 2015–2023-yillar kesimida ko'p omilli regressiv-korrelyatsion tahlil asosida tahlil qilinadi. Mazkur davrda tabiiy gaz yetkazib berish hajmining kamayishiga qaramay, kompaniya yalpi daromad hajmini 1,8 barobarga oshirishga erishgan. Bu holat modernizatsiya, infratuzilmaviy yangilanish va samarali mehnatga haq to'lash tizimining joriy etilishi bilan bog'liq. Tadqiqotda ishlab chiqarish hajmi, o'rtacha ish haqi va rag'batlantirish xarajatlarining daromadga ta'siri matematik modellashirish orqali o'rganilgan. Regressiya tenglamasi va korrelyatsion tahlil natijalari asosida daromadning asosiy omillari aniqlanib, uch ssenariy asosida prognozlashtirish ishlari amalga oshirilgan. Ayniqsa, mobilizatsion jarayonda ish haqi va rag'batlantirishni kuchaytirish daromadning barqaror o'sishida muhim omil sifatida namoyon bo'lgan.

Kalit so'zlar: ko'p omilli regressiv tahlil, korrelyatsion tahlil, tabiiy gaz yetkazib berish, iqtisodiy samaradorlik, o'rtacha ish haqi, rag'batlantirish xarajatlari, daromad prognozi, strategik jarayonlar, “O'ztransgaz” AJ.

Abstract: This article analyzes the activities of “O'ztransgaz” JSC for the period 2015–2023 using a multivariate regression-correlation method. Despite the decline in natural gas supply volumes during the analyzed period, the company succeeded in increasing its gross income by 1.8 times. This outcome is associated with modernization, infrastructure renewal, and the implementation of an effective remuneration system. The impact of production volume, average salary, and incentive expenses on revenue was examined through mathematical modeling. Based on the regression equation and correlation analysis, the key factors influencing revenue were identified, and forecasting was conducted under three scenarios. Particularly under the mobilization scenario, the strengthening of salaries and incentives emerged as a significant factor in sustainable income growth.

Key words: multivariate regression analysis, correlation analysis, natural gas supply, economic efficiency, average salary, incentive expenses, revenue forecast, strategic processes, “O'ztransgaz” JSC.

Аннотация: В данной статье анализируется деятельность АО «Ўзтрансгаз» за 2015–2023 годы на основе многомерного регрессионно-корреляционного анализа. Несмотря на снижение объемов поставок природного газа в исследуемый период, компании удалось увеличить валовой доход в 1,8 раза. Это обусловлено модернизацией, обновлением инфраструктуры и внедрением эффективной системы оплаты труда. В исследовании математическим моделированием изучено влияние объема производства, средней заработной платы и расходов на поощрение на доход. На основе уравнения регрессии и корреляционного анализа определены основные факторы дохода и проведено прогнозирование по трем сценариям. Особенно в мобилизационном сценарии усиление заработной платы и поощрения стало важным фактором стабильного роста доходов.

Ключевые слова: многомерный регрессионный анализ, корреляционный анализ, поставка природного газа, экономическая эффективность, средняя заработная плата, расходы на поощрение, прогноз дохода, стратегические процессы, АО «Ўзтрансгаз».



KIRISH

“O‘ztransgaz” AJ mamlakatda aholini tabiiy gaz bilan ta‘minlashda strategik ahamiyatga ega korxonalar qatoridan o‘rin egallaydi. Jumladan, 2023–yilda korxona faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan chora–tadbirlar natijasida quyidagi ijobiy natijalarga erishildi:

– Korxona tomonidan 2018–yilda ishga tushirilgan “Sheyxoncha” gaz taqsimlash stansiyasida amalga oshirilgan modernizatsion tadbirlar natijasida “Aksa Energi” elektr stansiyasi uchun yana bitta qo‘shimcha tarmoq qurildi. Bu orqali ushbu turdagi tarmoqlar soni uchtaga yetib, Buxoro shahri va tumanidagi 30 mingga yaqin aholi istiqomat qiluvchi xonadon xo‘jaliklari hamda 17 ta sanoat korxonasining tabiiy gaz bilan ta‘minoti yaxshilandi;

– Korxona tomonidan “Temiz” magistral gaz quvuriga parallel ravishda 46,5 km uzunlikdagi “Termiz–2” magistral gaz quvurini qurish loyihasining 31 km qismi ishga tushirilishi natijasida Surxondaryo viloyatining olti hududi, jumladan: Termiz shahri, Termiz, Angor, Jarqo‘rg‘on, Qiziriq va Sherobod tumanlarining tabiiy gaz ta‘minoti yaxshilandi. Shu bilan birga, ushbu loyiha 2024–2025-yilgi kuz–qish mavsumida 62 mingdan ortiq aholi yashovchi xonadon xo‘jaliklarining tabiiy gaz ta‘minotini yaxshilash imkonini beradi;

– “O‘ztransgaz” AJ tomonidan qurib bitkazilgan yangi gaz tarmog‘i — “Olimkent Avto Reys” GTS (gaz taqsimlash stansiyasi) orqali Oqqo‘rg‘on tumanidagi “Sultonobod”, “S. Tegizboev”, “S. Rahimov”, “Qo‘rg‘oncha”, “Birlik” va “Mustaqillik” mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi 5 640 ta aholi xonadoni hamda 147 ta ulgurji iste‘molchiga gaz ta‘minoti uzatilib, hududdagi gaz uzatish masofasi 16 km ga qisqartirilgan, tabiiy gaz bosimi esa ikki barobarga oshirildi;

– Vodiy viloyatlarida (Andijon, Namangan, Farg‘ona) aholini tabiiy gaz bilan ta‘minlash ko‘rsatkichlarini yaxshilash maqsadida 2023–yilda korxona tomonidan hududda 6 ta quduq burg‘ilanib, tabiiy gaz olish hajmi 9 000 m³ dan 12 000 m³ ga yetkazilgan.

1–rasm. “O‘ztransgaz” AJning iqtisodiy faoliyat ko‘rsatkichlari¹

Yillar	Korxona jami daromadlari. mln. so‘m (y)	Tovar (ish. xizmat) lar. mln. m3 (x1)	O‘rtacha ish haqi. mln so‘m (x2)	Hodimlarni rag‘batlantirish. mln so‘m (x3)
2015	8359680,4	38344,4	1,5	186566,9
2016	10125910,7	39562,5	1,9	164895,2
2017	11005757,3	37450	2,3	168859,1
2018	15750540,5	38882,2	2,5	112743,7
2019	25392640,6	38660,1	4,5	120007,9
2020	24367330,5	30906,9	6,8	79746,7
2021	23644758,3	23644,8	7,4	94547,3
2022	20509751,5	22978,2	8,5	138588,9
2023	15165150,1	2298,4	9,2	160615,7

“O‘ztransgaz” AJ tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, korxona 2015–2023-yillar davomida jami 292 727,5 mln m³ hajmga teng bo‘lgan tabiiy gaz bilan mamlakat aholisi va real sektor korxonalarini ta‘minlagan. O‘rganilayotgan davrda korxonaning jami daromadlari hajmi 15 165,2 mlrd so‘mni tashkil etgan. Jumladan, tahlil etilayotgan yillarda korxona tomonidan ishlab chiqarilgan tabiiy gaz hajmi 1,7 martaga yoki 41,8 foizga kamaygan. Ushbu holat mamlakatda tabiiy gaz zahiralarning bosqichma-bosqich kamayib borayotganidan dalolat beradi.

Shunga qaramay, 2015–2023-yillar mobaynida korxonaning yalpi daromadlari hajmi 1,8 martaga oshgani, ishlab chiqarish hajmi kamayishiga qaramay, korxona yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishib kelayotganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘rganilayotgan davrda korxonada o‘rtacha ish haqi hajmi 1,5 mln so‘mdan 9,2 mln so‘mga yetgan bo‘lsa, hodimlarni rag‘batlantirish xarajatlari hajmi 13,9 foizga kamayganligi aniqlangan (1–rasmga qarang).

Korxona rahbariyati tomonidan berilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, hodimlarni rag‘batlantirish xarajatlarning kamayishi o‘rtacha ish haqi hajmining ortishi hisobiga barcha xodimlarga yuqori ish haqi to‘lash orqali ularni teng rag‘batlantirish amaliyotiga o‘tilgani bilan izohlanadi. Shu bilan birga, yuqori natijaga erishgan hodimlarga alohida rag‘batlantirish tizimiga bosqichma-bosqich jalb qilinmoqda. Bu holat korxonada hodimlarni

1 “O‘ztransgaz” AJ ma‘lumotlari asosida tuzilgan



rag'batlantirishning samarali mexanizmini shakllantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar ustuvor ahamiyatga ega bo'layotganini anglatadi.

Keyingi yillarda korxonada hodimlar samaradorligini motivatsiyalash hisobiga uning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini rivojlantirish istiqbollari bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish orqali strategik rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash talab etiladi. Bunda korxona tomonidan taqdim etilgan 1-rasmdagi ma'lumotlarga asoslangan holda prognoz ko'rsatkichlarini hisoblash zarur bo'ladi.

Shu maqsadda ko'p omilli regressiv-korrelyatsion tahlilni amalga oshirish lozim topildi. Prognoz ko'rsatkichlarini hisoblashda korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligi natijaviy omil sifatida tanlanganligi sababli, korxona daromadlari hajmi (y) o'zgarishiga ishlab chiqarish hajmi (x_1), o'rtacha ish haqi (x_2) va **hodimlarni rag'batlantirish xarajatlari (x_3)**ning ta'siri, shuningdek, ushbu o'zgaruvchilar o'rtasidagi ichki bog'liqlik darajasi baholanishi zarur.

Buning uchun dastlab ko'p omilli regressiv model tuzib olinadi. Mazkur model tenglamasi quyidagi funksiya orqali hisoblanadi:

$$f(y) = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2 + a_3x_3 + \varepsilon$$

bu yerda:

$a_0; a_1; a_2; a_3$ – mustaqil o'zgaruvchilarning vektor koeffitsientlari;

x_1, x_2, x_3 – Mustaqil o'zgaruvchilar (x_i), ya'ni natijaviy ko'rsatkich (y) ga ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida qaraladi. Ko'p omilli regressiv funksiyaning mustaqil o'zgaruvchilari va natijaviy ko'rsatkichlari qiymatlari 1-rasmda keltirib o'tilgan bo'lib, ular asosida quyidagi formula orqali funksiyaning mustaqil o'zgaruvchilari uchun vektor koeffitsientlar aniqlanadi:

$$s = (x^T x)^{-1} x^T y$$

Yuqorida keltirilgan formula asosida ko'p omilli regressiv modeldagi mustaqil o'zgaruvchilarning vektor koeffitsientlarini hisoblashda matritsaviy usuldan foydalaniladi. Bunda mustaqil o'zgaruvchilar (x_i) va natijaviy ko'rsatkich (y) asosida tuzilgan mos matritsalar orqali ko'p omilli regressiv modelning vektor koeffitsientlari aniqlanadi.

Y(X)	154321520	*	9	272727,5	44,6	1226571,4	=	3758478	a0
	4,546E+12		272727,5	9,492E+09	1091594,7	3,728E+10		398,99028	a1
	865256554		44,6	1091594,7	295,54	5701019,6		2354957,6	a2
	1,937E+13		1226571,4	3,728E+10	5701019,6	1,779E+11		-76,107689	a3

Hisob-kitob natijalari asosida ko'p omilli regressiv modelning funksiyasi quyidagicha aniqlandi:

$$f(y) = 3\,758\,478,03 + 398,99x_1 + 2\,354\,957,63x_2 - 76,1x_3$$

Ko'p omilli regressiv model funksiyasiga asoslanib quyidagi xulosalar olindi:

– “O'ztransgaz” AJ faoliyatining iqtisodiy samaradorligi tanlangan mustaqil o'zgaruvchilar ta'siri inobatga olinmagan holda, 3 758 478,03 birlikka kamayish tendensiyasiga ega ekanligi aniqlandi;

– Korxona faoliyatida ishlab chiqarish hajmining bir birlikka ortishi hisobiga daromad hajmi qo'shimcha 398,99 birlikka oshib, iqtisodiy samaradorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatgan;

– Korxonada o'rtacha ish haqi oshirilishi orqali barcha hodimlarni teng rag'batlantirish amaliyotiga o'tilgan. Bu esa korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirgan. Xususan, o'rtacha ish haqi hajmi bir birlikka ortganda, korxonaning yalpi daromadlari 2 354 957,63 birlikka oshgan;

– Korxonada amal qilayotgan hodimlarni rag'batlantirish xarajatlari esa uning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, rag'batlantirish xarajatlari bir birlikka oshganda, korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligi 76,1 birlikka kamaygan. Shu sababli, samaradorlikni oshirish maqsadida motivatsiyalash tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilgan.

Tuzilgan ko'p omilli regressiv modelga asoslanib, “O'ztransgaz” AJ faoliyatida hodimlar samaradorligini rag'batlantirishni barcha xodimlarga nisbatan teng qo'llash amaliyotiga o'tish orqali tizimning umumiy samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkinligi xulosasi berildi.

Keyingi bosqichda esa tuzilgan gipoteza asosida ko'p omilli korrelyatsion tahlilni amalga oshirish talab etiladi. Bunda gipotezaga muvofiq, natijaviy ko'rsatkich (y) hamda belgilangan mustaqil o'zgaruvchilar (x_i) asosida matritsa tuzilib, u orqali ko'rsatkichlar o'rtasidagi ichki bog'liqlikni ifodalovchi korrelyatsiya koeffitsientlari quyidagi formula yordamida hisoblanadi (3-ildovaga qarang).



$$r_{xy} = \frac{\overline{x * y} - \bar{x} * \bar{y}}{s(x) * s(y)}$$

Yuqorida keltirib o'tilgan formula asosida, shakllantirilgan gipotezaga muvofiq natijaviy ko'rsatkich (y) va belgilangan mustaqil o'zgaruvchilar (x_i) o'rtasidagi ichki bog'liqlik aniqlanadi. Asosiy olinadigan natija — bu korxonaning jami daromadi bo'lib, unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlik juft korrelyatsiya koeffitsienti formulasi yordamida baholanadi.

Mazkur tahlil natijalari quyidagi 2-rasm va 2-jadvalda aks ettirilgan.

2-jadval. Korxona daromadi va omillar o'rtasidagi bog'liqlik (korrelyatsiya koeffitsienti)

O'zgaruvchilar	y — Korxona jami daromadlari	x1 — Tovar (ish, xizmat) hajmi	x2 — O'rtacha ish haqi	x3 — Hodimlarni rag'batlantirish
Korxona jami daromadlari. mln. so'm (y)	1			
Tovar (ish, xizmat) lar. mln. m3 (x1)	-0,201156028	1		
O'rtacha ish haqi. mln so'm (x2)	0,627957024	-0,859375373	1	
Hodimlarni rag'batlantirish. mln so'm (x3)	-0,865092286	0,03014534	-0,421313396	1

Shakllantirilgan gipotezaga muvofiq, belgilangan mustaqil o'zgaruvchilar (x_i) o'rtasidagi ichki bog'liqlikni baholash maqsadida amalga oshirilgan hisob-kitoblarni natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

— Korxona daromadi va tovar (ish, xizmat)lar o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti $-0,201156028$ ga teng bo'lib, ular o'rtasida zaif teskari bog'liqlik mavjudligi aniqlangan. Bu shuni anglatadiki, xizmatlar yoki tovar hajmi ortganida korxona daromadida biroz pasayish kuzatilishi mumkin, ammo bu o'zgarish kuchli emas va ehtimol boshqa omillar ta'siri mavjud bo'lishi mumkin.

— Korxona daromadi va o'rtacha ish haqi o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti $0,627957$ bo'lib, bu o'rtacha darajadagi musbat bog'liqlik mavjudligini bildiradi. Demak, ishchilarning ish haqi oshgani sari korxonaning umumiy daromadi ham oshishga moyil bo'ladi.

— Korxona daromadi va hodimlarni rag'batlantirish o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti $-0,865092286$ ga teng bo'lib, bu ular o'rtasida kuchli teskari bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Ya'ni, hodimlarga beriladigan rag'batlantirish miqdori ortgani sari korxona daromadi kamayish tendensiyasiga ega bo'ladi yoki aksincha.

— Tovar (ish, xizmat)lar va o'rtacha ish haqi o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti ham $-0,865092286$ ga teng bo'lib, bu ular o'rtasida kuchli teskari bog'liqlik mavjudligini bildiradi. Bu shuni anglatadiki, ish haqi oshgan sari tovar (ish, xizmat) hajmi kamayishga moyil bo'ladi yoki aksincha.

— Tovar (ish, xizmat)lar va hodimlarni rag'batlantirish o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti $0,03014534$ ga teng bo'lib, bu deyarli bog'liqlik yo'qligini ko'rsatadi. Ya'ni, hodimlarni rag'batlantirish darajasi tovar (ish, xizmat)lar hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

— O'rtacha ish haqi va hodimlarni rag'batlantirish o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti $-0,421313396$ ga teng bo'lib, ular o'rtasida o'rtacha darajadagi teskari bog'liqlik mavjud. Bu esa, ish haqi oshgani sari rag'batlantirish miqdorining kamayish tendensiyasi mavjudligini bildiradi.

$$R_{yx_1x_2x_3} = (1 - (1 - r_{yx_1}^2) * (1 - r_{yx_2}^2) * (1 - r_{yx_3}^2) * (1 - r_{x_1x_2}^2) * (1 - r_{x_1x_3}^2) * (1 - r_{x_2x_3}^2))$$

Xususi korrelyatsiya koeffitsienti formulasi yordamida tovar (ish, xizmat)lar hajmi bilan korxonaning jami daromadi o'rtasidagi xususi korrelyatsiya koeffitsienti $0,968580343$ ga teng deb hisoblandi. Bu natija ular o'rtasida juda kuchli musbat bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Boshqa omillar (xususan, ish haqi va rag'batlantirish xarajatlari) ta'siri chiqarib tashlanganda, tovar hajmining korxona daromadiga bevosita ijobiy ta'siri yuqoriligi aniqlanadi.

Amalga oshirilgan ko'p omilli regressiv-korrelyatsion tahlil natijalariga asoslangan holda, "O'ztransgaz" AJ faoliyatida hodimlar samaradorligini motivatsiyalash hisobiga korxona daromadlari hajmining ortishi bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi.




Birinchi prognoz ko'rsatkichlari hisoblab chiqilib, bunda "O'ztransgaz" AJ faoliyatida so'nggi yillarda hodimlar samaradorligini motivatsiyalash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar keyingi yillarda ham mazkur tendensiyalarga asoslanishi mumkinligiga ustuvorlik qaratildi. Inersion ssenariyga asoslangan prognoz ko'rsatkichlari quyidagi formula asosida hisoblangan:

$$f(y) = 3758478,03 + 398,99x_1 + 2354957,63x_2 - 76,1x_3$$

Inersion ssenariy asosida amalga oshirilgan prognoz ko'rsatkichlari hisob-kitobi natijasida, 2027-yilga qadar bo'lgan davrda "O'ztransgaz" AJ faoliyatida so'nggi yillarda hodimlar samaradorligini motivatsiyalash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar kelgusi yillarda ham mazkur ijobiy tendensiyalar davom etishiga asos bo'lishi mumkinligi aniqlangan. Ushbu asosda korxonaning yalpi daromad hajmi 2023-yilga nisbatan 1,7 martaga ortgani kuzatilgan (3-rasmga qarang).

Ko'p omilli regressiya modeli asosida amalga oshirilgan hisob-kitoblarga ko'ra, korxona daromadlari hajmi 2027-yilga borib, 2023-yilga nisbatan 2,47 martaga yuqori ehtimollik bilan baholangan (1-rasmga qarang).



3-rasm. 2024–2027-yillarda "O'ztransgaz" AJ faoliyatida hodimlar samaradorligini motivatsiyalash hisobiga iqtisodiy samaradorlikka erishishning prognoz ko'rsatkichlari (mln so'mda)

Uchinchi prognoz ko'rsatkichlari mobilizatsion ssenariylarga asoslangan holda hisob-kitob qilindi. Bunda korxonada hodimlar samaradorligini motivatsiyalash hisobiga iqtisodiy samaradorlikning oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan o'rtacha ish haqi hajmining oshirilishiga ustuvorlik qaratildi. Prognoz ko'rsatkichlari quyidagi formula asosida aniqlangan.

Past ehtimollik modeli asosida amalga oshirilgan hisob-kitob natijalariga ko'ra, keyingi yillarda korxonada o'rtacha ish haqining oshirilishi hisobiga korxona daromadlari hajmini 2027-yilga borib 2023-yilga nisbatan 0,33 martaga oshirish imkoniyati mavjudligi aniqlangan.

Ko'p omilli ekonometrik regressiya modeliga asosan, 2023–2026-yillar davomida korxonaning real daromadlari prognoz (trend) qiymatlaridan sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Bu holat korxonaning iqtisodiy faoliyati barqaror rivojlanib borayotganini, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmi ortganini hamda ichki omillar (jumladan, samarali boshqaruv, rag'batlantirish tizimi, ishchi kuchi unumdorligi va talabning oshishi) ijobiy natija berganini ko'rsatadi.

Ayniqsa, 2023-yilda prognozga nisbatan daromadning deyarli 10 milliard so'mga ortganligi ijobiy o'sishning eng yuqori nuqtasi bo'lganini anglatadi. Shuningdek, 2024–2025-yillarda ham ijobiy farq davom etgan bo'lib, bu holat korxonaning o'sish sur'atlari uzluksiz bo'lganini tasdiqlaydi.

Biroq, 2027-yilda keskin pasayish kuzatilgan va daromad prognoz qiymatidan 6 milliard so'mdan ortiq kam bo'lgan. Bu esa ehtimoliy tashqi-iqtisodiy omillar, ichki moliyaviy muammolar yoki talabning pasayishi kabi salbiy ta'sirlar yuzaga kelganidan dalolat beradi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“O‘ztransgaz” AJ faoliyati va gaz-ta‘minoti tizimining iqtisodiy samaradorligi mavzusi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda energetika infratuzilmasining barqarorligi, ishlab chiqarish hajmi, iste‘mol dinamikasi va moliyaviy ko‘rsatkichlar tahlili asosiy yo‘nalish sifatida ajralib turadi. Xususan, G‘ulomov S. S. va Xudoyberdiyev A. X. tomonidan ilgari surilgan makroiqtisodiy barqarorlik tamoyillari (2021) korxonalar darajasida prognozlashda foydalaniladigan nazariy asoslarni belgilab bergan. Ahmadjonov A. A. (2017) ko‘p omilli regressiv va korrelyatsion tahlilning iqtisodiy o‘zgaruvchilar ta‘sirini baholashdagi afzalliklarini ko‘rsatgan. TDIU tomonidan tayyorlangan Ekonometrika fanidan amaliy qo‘llanmada (2021) esa gaz sanoatida foydalanilishi mumkin bo‘lgan matematik modellashirish yondashuvlari taklif etilgan. Energetika sektori bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar (IEA, 2022) ko‘p holatlarda tabiiy gaz zahiralari, tashish quvurlari va tarif siyosati o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashda regressiya modellari va prognozlash usullarining muhimligini ta‘kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda “O‘ztransgaz” AJning 2015–2023-yillardagi faoliyat ko‘rsatkichlari asosida 2024–2027-yillar uchun prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish maqsadida ko‘p omilli ekonometrik modellardan foydalanildi. Natijaviy ko‘rsatkich sifatida korxonaning yalpi daromadlari (y) tanlandi. Mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida esa ishlab chiqarilgan tabiiy gaz hajmi (x_1), o‘rtacha ish haqi (x_2) va hodimlarni rag‘batlantirish xarajatlari (x_3) olingan. Ma‘lumotlar matritsaviy usul yordamida ko‘p omilli regressiv modelga tatbiq etildi. Ularning o‘zaro bog‘liqligi esa korrelyatsion tahlil orqali aniqlandi. Model asosida xatolik darajasi, koeffitsientlarning ahamiyatlilik darajasi (t -statistika, p -value), va prognoz ishonchligi (R^2) baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Amalga oshirilgan ko‘p omilli regressiv tahlil natijasida quyidagi tenglama hosil qilindi:

$$f(y) = 3\,758\,478,03 + 398,99x_1 + 2\,354\,957,63x_2 - 76,1x_3$$

Bu tenglama shuni ko‘rsatadiki:

Ishlab chiqarish hajmi (x_1) bir birlikka oshganda korxona daromadi o‘rtacha 398,99 birlikka ortadi.

O‘rtacha ish haqi (x_2) bir birlikka oshirilganda, daromad hajmi 2 354 957,63 birlikka ko‘tariladi.

Rag‘batlantirish xarajatlari (x_3) ortgani sari iqtisodiy samaradorlik pasayadi. Bir birlik ortish daromadni o‘rtacha 76,1 birlikka kamaytiradi.

Prognozlashda uchta ssenariy asosida yondashuv ishlab chiqildi:

Inersion ssenariy – mavjud tendensiyalar davom etgandagi o‘shish.

Mobilizatsion ssenariy – ish haqi va ishlab chiqarishni faol rag‘batlantirish holati.

Past ehtimollik ssenariysi – tashqi-iqtisodiy omillarning salbiy ta‘siri holati.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2027–yilgacha daromad hajmini 2023–yilga nisbatan 2,47 martaga oshirish imkoniyati mavjud. Ayniqsa, mobilizatsion ssenariyda mehnat haqi va ishlab chiqarishni samarali boshqarish orqali barqaror moliyaviy ko‘rsatkichlarga erishish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, tahlil shuni ko‘rsatadiki, 2023–2026-yillar korxona faoliyati uchun yuksalish davri bo‘lgan, 2027-yilda esa salbiy siljish kuzatilgan. Bu esa kelgusida risklarni oldindan baholash, strategik rejalashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash choralarini ko‘rish zarurligini anglatadi.

“O‘ztransgaz” AJ faoliyati tahlili ko‘p omilli regressiv-korrelyatsion model asosida olib borilgan. Tadqiqotlar natijasida korxonaning iqtisodiy samaradorligiga ta‘sir etuvchi asosiy omillar aniqlangan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2015–2023-yillar davomida ishlab chiqarilayotgan tabiiy gaz hajmining kamayganiga qaramasdan, korxonaning yalpi daromadlari hajmi 1,8 barobarga ortgan. Bu holat, asosan, infratuzilmaviy modernizatsiya, o‘rtacha ish haqining oshishi hamda mehnatga haq to‘lash tizimining takomillashtirilishi bilan izohlanadi.

Ko‘p omilli regressiv tahlil natijalariga ko‘ra, o‘rtacha ish haqi va ishlab chiqarish hajmi daromadga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda, rag‘batlantirish xarajatlari esa salbiy ta‘sir qilmoqda. Ayniqsa, o‘rtacha ish haqi oshishi natijasida daromad ko‘rsatkichlarining keskin o‘shishi kuzatilgan. Bu holat ishchi-xodimlarni umumiy rag‘batlantirish tizimiga o‘tish va samaradorlikni mehnatga munosib haq to‘lash orqali ta‘minlash strategiyasi o‘zini oqlayotganini ko‘rsatadi.

Korrelyatsion tahlil natijalari ham mazkur omillar o‘rtasida sezilarli bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlagan. Jumladan, o‘rtacha ish haqi va daromad o‘rtasida o‘rtacha darajadagi musbat bog‘liqlik, rag‘batlantirish xarajatlari va daromad o‘rtasida esa kuchli teskari bog‘liqlik mavjudligi aniqlangan.



Ushbu natijalar asosida xulosa qilish mumkinki, korxonada kelgusida strategik qarorlar qabul qilishda mehnat samaradorligini oshirish, ish haqi tizimini adolatli shakllantirish va rag'batlantirish mexanizmini yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu esa "O'ztransgaz" AJning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligiga hamda milliy energetika tizimidagi rolini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'ulomov S. S., Abdurahmonov Q. X., Xudoyberdiyev A. X. Makroiqtisodiyot. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2021.
2. Ahmadjonov A. A. Regressiv va korrelyatsion tahlil asoslari. – Toshkent: "Fan", 2017.
3. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. Ekonometrika fanidan amaliy qo'llanma. – TDIU, 2021.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, PQ-4422-son, 2019-yil 9-avgust – "Gaz tarmog'i tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/docs/-4486125>
5. Xodjayev U. Statistika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2019.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
